

Akbarov Zafar Xoshimjonovich

Namangan davlat universiteti

Akbarov Zafar Xoshimjonovich

Namangan State University

Акбаров Зафар Хошимжонович

Наманганский государственный университет

NAMANGAN VILOYATIDA TARQALGAN IQLIM O'ZGARISHIGA CHIDAMLI BO'LGAN DORIVOR O'SIMLIKLAR.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Namangan viloyatida tarqalgan dorivor o'simliklardan iqlim o'zgarishi vaqtida ham o'sib rivojlanayotgan dorivor o'simliklarni ahamiyati tadqiq etilgan. Shuningdek bu o'simliklardan o'sib rivojlanishi mamlakatimiz iqtisodiyotiga va farmasevtika sanoatida keng foydalanish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: Dorivor o'simliklar, iqlim, resurs, o'zgarish, tabiiy resurs, mamlakat, Namangan viloyati, tabiat.

Abstract. This article examines the importance of medicinal plants that are widespread in the Namangan region and that are growing and developing even during climate change. It also provides opportunities for the growth and development of these plants for the economy of our country and for their widespread use in the pharmaceutical industry.

Keywords: Medicinal plants, climate, resource, change, natural resource, country, Namangan region, nature.

Аннотация. В данной статье рассматривается значение лекарственных растений, которые растут и развиваются даже при изменении климата в Наманганской области. Также рост и развитие этих растений позволяет широко использовать их в экономике нашей страны и в фармацевтической промышленности.

Ключевые слова: Лекарственные растения, климат, ресурс, изменение, природный ресурс, страна, Наманганская область, природа.


So'ngi yillarda mamlakatimizda iqlim o'zgarishi holati o'zgarayotganligini kuzatish mumkin. Bu holatlar tabiatdagi o'zgarishlarga sabab bo'lib qolmoqda. Qolaversa tabiiy resurslarni ko'lami kundan-kunga kamayib, ularni maydoni qisqarishlarga olib kelmoqda. Bu holatlar Namangan viloyatida uchraydigan o'simliklarning kuzatilmoqda. Hududda tarqalgan o'simliklar xalq xo'jaligining turli sohalarida foydalanib kelinmoqda. Ayniqsa, dorivorlik xususiyatiga ega bo'lgan o'simliklar asosan tog', tog' oldi, adir, tekislik hududlarida keng tarqalgan. Hozirgi kunda viloyatda shunday o'simliklarning 400 ga turi o'sadi. Ular orasida efir moyi oluvchi o'simliklar 138 turni, rang beruvchi o'simliklar 132 turni tashkil etadi. Shuningdek, asal va shirin moddalar beruvchi o'simliklarning qariyb 500 turi viloyatning turli joylarida uchraydi. Umumiy hisobda, Namangan viloyatida uchraydigan o'simliklar mamlakatimizdagi o'simlik turlarining 33,9 foizini tashkil etadi. Qolaversa viloyatda iqlim o'zgarishi sharoitiga mos holda o'suvchi o'simliklar ham mavjud. Ular quyidagilar:

1. **Temirtikan** (Tribulus L.) — tuyatovondoshlar oilasiga mansub bir yillik o'simlik. Poyasi yer bag'irlab (uchi ko'tarilib) o'sadi, bo'yi 10-60 sm shoxlangan. Barglari qarama-qarshi joylashgan. 5-7 juft bargchalardan iborat. Gullari sariq. Mevasi qattiq tikanli. May va avgust oylarida gullab, urug' beradi. Ekinlar orasida, bog'larda, yo'l yoqalarida, daryo, soy bo'ylarida va boshqa yerlarda o'sadi.

Kimyoviy tarkibi. O'simlik tarkibida steroid saponinlar, flavonoidlar, alkaloidlar, vitamin S, karotin, oshlovchi, bo'yoq va boshqa moddalar bor.

Ta'siri va ishlatilishi. Xalq tabobatida temirtikan mevasining poroshogi siydik xaydovchi vosita sifatida ishlatiladi, va so'zak hamda zaxm kasalliklarida chekishga buyuriladi. Yer ustki qismidan tayyorlangan damlama shishlarga va yaralarga davo qilinadi. U bilan ko'z yallig'lanishi, bosh og'rig'i va qon aralash ich ketish kabi kasalliklar davolanadi. O'simlik damlamasi, ya'ni siydik haydovchi, surchi, organizm tonusini ko'taruvchi vosita sifatida va boshqa kasalliklarda qo'llaniladi.

Geografik tarqalishi: O'zbekistonning deyarli barcha hududlarida, jumladan, Namangan, Farg'ona, Andijon viloyatlarida keng tarqalgan. U asosan dalalar, kanal yoqalari, yo'l bo'ylari, tashlandiq yerlar va bog'larda suvsiz yerlarda uchraydi.



1-rasm. Namangan viloyatida temirtikan o'simligi tarqalgan hududlar.

2. ISIRIQ (*Peganum harmala* L.). Isiriq qadimdan ko'pchilikka ma'lum va mashhur bo'lgan dorivor o'simlik bo'lib, balandligi 30-40 sm ga yetadigan o'tchil o'simlik, isiriqdoshlar oilasiga mansub. Ildizi qoramtir-qo'ng'ir rangli, kuchli 2-3 metrgacha chuqurlikka boradi. Poyasi ko'p shoxli, egilgan, tuksiz. Bargi oddiy, kulrang-yashil tusda. Poyaning pastki qismidagi barglari qisqa bandli, yuqori qismidagilari esa bandsiz, poyada ketma- ket o'rnavdigan. Gullari oq, shoxlarining uchki qismida yakka-yakka joylashgan. Mevasi sharsimon, uch chanoqli ko'sakcha.


Kimyoviy tarkibi. O'simlikning barcha qismlarida 1,5 dan 6% gacha, urug'larida 14,25% gacha zaharli alkaloidlar uchraydi (charmin, charmalin, peganin, garmonin). Urug'ida moy, bo'yoq va boshqa moddalar topilgan.

Ta'siri va ishlatilishi. Etnobotanikada va xalq tabobatida isiriq qadim zamonlardan beri ishlatib kelinadigan muhim dori vositasi. Isiriqdan tayyorlangan vannalarni revmatik artritlar, qo'tir va boshqa teri kasalliklarida, uni qaynatmasidan shamollash, nevralgiya bezgak va og'riqni qoldiruvchi vosita sifatida foydalaniladi. Gripp kasalligi avj olgan paytlarda isiriq bino va uylarda tutatilganda kasallik tarqalishining oldi olinadi.

Zamonaviy tabobatda isiriq alkaloidi garmin epidemik ensefalitdan keyin qolgan asoratlarga, shuningdek titroq, falaj va Parkinson kasalligiga davolashda qo'llaniladi. O'simlikning ildizlari va urug'i davlat farmakopeyasiga kiritilgan.

Tayyorlash va ishlatilishi. Maydalangan isiriq o'simligidan bir choy qoshiq olinib, ustiga qaynoq suv quyiladi. Ikki soat damlab quyiladi va suzib olinib, bir qoshiqdan kuniga 2-3 mahal ichiladi.

Geografik tarqalishi: O'zbekiston hududida keng tarqalgan o'simliklardan biri hisoblanadi. U ayniqsa Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Navoiy, Xorazm, Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand, Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida uchraydi. Shuningdek, Farg'ona vodiysi (Andijon, Farg'ona, Namangan) va Toshkent viloyatining quruq hududlarida ham isiriq o'sadi. U ko'pincha yo'l bo'ylarida, tashlandiq yerlarda va cho'l zonasida uchraydi.



2-rasm. Namangan viloyatida isiriq o'simligi tarqalgan hududlar.

3. Na'matak (*Rosa nanothamnus* Boulenger) turlarining bo'ylari 2-3 metrgacha yetadigan butalar, tanasi tikanli, ra'noguldoshlar oilasiga mansub. Na'matak turlarining mevalari xar xil vitaminlarga boyligi bilan mashhur va tabobatda qadimdan foydalanib kelinadi. O'zbekistonning tog'li va tog' oldi hududlarida


na'matakning bir nechta turlari uchraydi. U tabiiy holda o'sadigan, tikanli, ko'p yillik butazor o'simlik bo'lib, asosan tog' etaklari, yarim tog'lik hududlar, daraxtzorlar, yovvoyi o'rmon chetlari va suv bo'ylarida o'sadi. O'zbekistonda ham keng tarqalgan.

Kimyoviy tarkibi. Na'mataklar mevalarida talaygina vitaminlar S, V₂, K, R, karotin organik kislotalar, qand moddalari pektin va efir moylari bor.

Ta'siri va ishlatilishi. Xalq tabobatida meva qaynatmasi yoki damlamasi qon ketishni to'xtatuvchi, isitma tushiradigan, hamda me'da-ichak kasalliklarini davolashda, og'iz bo'shlig'i kasalliklarida og'iz chayish uchun ishlatiladi.

Ilmiy tibbiyotda na'matak mevalaridan xar xil tabletkalar tayyorlaniladi, ularda vitaminlar bo'lganligi uchun avitaminoz kasalligini davolashda va kasallikni oldini olishda ishlatiladi, ular vitaminli va polivitaminli choylar yig'masi tarkibiga kiradi. Bulardan tashqari, na'matak mevasi konditer sanoatida vitaminlashtirish uchun ishlatiladi.

Geografik tarqalishi: O'zbekistonning deyarli barcha viloyatlarida na'matak tabiiy holda uchraydi. Ayniqsa, Farg'ona vodiysi (Andijon, Farg'ona, Namangan), Toshkent viloyati, Samarqand, Jizzax, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining tog' etaklari va daryo vodiylarida na'matak juda ko'p turi uchraydi. U daryo, soy va jilg'alar bo'yida, nam va serunum tuproqlarda yaxshi o'sadi, ammo madaniy ekin sifatida ham o'stiriladi.



3-rasm. Namangan viloyatida na'matak o'simligi tarqalgan hududlari.


4. **Dalachoy (*Hypericum perforatum* L.).** Ko'p yillik, ildizpoyali o'tchil o'simlik, balandligi 30-50 sm ga yetadi. Barglari qarama-qarshi joylashgan, hidli, gullari — tillarang, sariq rangda, changchilari ko'p, bir-biriga qo'shilib, uchta dasta hosil qiladi. Gullari — rovaksimon to'pgul. Mevasi uch uyadan iborat ko'p urug'li, qo'ng'ir rangli ko'sakcha. Asosan tog' zonasining o'rta qismlarida keng tarqalib, daraxt, butazorlar, archazorlar orasida, bog'lar, o'tloqzorlar orasida o'sadi.

Kimyoviy tarkibi. Dalachoyning kimyoviy tarkibida giperitsid degan bo'yoq modda, flavonoidlar, giperozid, rutin, kversitrin va kversitin, efir moyi, nikotinat kislota, oshlovchi moddalar, karotin, vitamin S va RR, fitonsidlar va boshqa moddalar bor.

Ta'siri va ishlatilishi. Xalq tabobatida choy o'tidan tayyorlangan qaynatma va damlama buyrak, yurak, me'da-ichak yo'llari kasalliklari, sil, gepatit, isteriya, ipoxondriya, pes, og'iz bo'shlig'i kasalliklarida yallig'lanishiga qarshi, tonusni kuchaytiradigan, shuningdek qon ketishini to'xtatadigan dori sifatida ishlatiladi.

Zamonaviy tabobatda Dalachoyda bo'ladigan flavanoidlarning silliq muskulli hamma organlarga spazmolitik ta'sir ko'rsatishi, vitamin P esa kapillyarlarni mustahkamlab, o'tkazuvchanligini pasaytirishi aniqlangan. Respublikamiz sharoitida Dalachoyni tarkibi jihatdan bir — birlariga o'xshaydigan uchta turi mavjud va ularning hammasidan xalq tabobatida ishlatilishi mumkin.

Geografik tarqalishi: O‘zbekistonda dalachoy asosan tog‘ va tog‘oldi hududlarida uchraydi. Chotqol, Qurama, Hisor va Turkiston tizmalari atrofidagi nam va unumdor



tuproqli joylarda, ayniqsa soy va jilg‘a bo‘ylarida dalachoy ko‘p uchraydi. Viloyatlar kesimida olib qaralganda, bu o‘simlik Namangan, Farg‘ona, Toshkent, Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining tog‘li mintaqalarida keng tarqalgan. Dalachoyning bunday keng geografik tarqalishi, avvalo, uning qurg‘oqchilikka, sovuq va issiqqa chidamliligi, yengil tuproqlarda ham yaxshi o‘sishi va urug‘larining tez tarqalishiga bog‘liqdir. Bu xususiyatlari uni iqlim o‘zgarishlariga barqaror turgan o‘simliklardan biriga aylantiradi.

4-rasm. Namangan viloyatida dalachoyni tarqalishi hududlari.



Namangan viloyati 2000-2022 yillardagi iqlimdagi o'zgarishlar diagramma.

Yuqoridagilardan kelib chiqib dorivor o'simliklardan keng foydalanish, aholi salomatligi va ekologik vaziyatni yaxshilash, eng avvalo, ichki imkoniyatlarni ishga solish bilan bog'liqdir. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida ayrim tabiiy maydonlarda o'suvchi o'simlik turlari va dorivor o'simliklardan belgilangan tabtabda foydalanilmaslik va ularni maydonlarini kamayish jarayonlari kuzatilmoqda. Xususan, vegetatsiya davri boshidagi o'rtacha haroratlar yig'indisi oy va mavsumiy ko'rsatkichlarda ham bir muncha seziladi. Masalan, bahor oylarida ($\pm$) 0,4-0,7 S^0 , yoz oylarida (+) 0,9-1,6 S^0 , kuz oylarida ($\pm$) 0,6-0,9 S^0 , qish oylarida esa ($\pm$) 1,6-1,9 S^0 harorat trendiga teng. Harorat trendi ayniqsa, qish va bahordagi farqli ko'rsatkichga ega. Yozgi mavsumiy o'rtacha haroratda bu ko'rsatkich + 0,5 qishda esa -1,5 S^0 ga ega. E'tiborli jihati, mazkur jarayonda tuproq va o'simlikdagi evopo transpiratsiya bir muncha kuchayadi. Bu esa doimiy xususiyatga ega bo'lgan o'simlikni yashash tarziga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu holat viloyatni barcha hududlarida kuzatilgan bo'lib, yoz davrida o'simliklarni suvga bo'lgan talabini ortishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. «O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqidagi 2016 yil 21 sentyabr O'RQ-409-sonli qonuni.
2. O.Abdullayev "Mustaqillik yillarida Namangan viloyati" Namangan 2008. Петров Ю.В., Эгамбердиев Х.Т., Алаутдинов М., Холматжанов Б.М. Иқлимшунослик. – Тошкент: "Ношир", 2010. – 168 б.
3. Баратов П. Ўзбекистон табиий географияси.-Т.: Ўқитувчи, 1996. 262 б.
4. П.К.Игамбердиева и др. Исследование макро- и микроэлементного состава лекарственных растений Южной Ферганы и перспективы применения их при лечении заболеваний// Фармацевтический журнал Узбекистана. Ташкент, 2013. №3. Стр. 7-11.
5. E.T.Berdiyev, M.X.Hakimova, G.B.Maxmudova. O'rmon dorivor o'simliklari (O'quv qo'llanma). - Toshkent, O'zR FA mini tipografiyasi, 2016. - 252 bet.
6. S.Meliboyev, M.Isroilov, Z.Isomiddinov, X.Abdunazarov, Sh.Tursunova O'zbekiston florasida uchraydigan dorivor o'simliklar. Uslubiy qo'llanma. Farg'ona nashriyoti, -Farg'ona 2018 yil.
7. Комилова Н.Қ.,Солиев А.С. Тиббиёт географияси.-Т.: Истиқлол, 2005.-162 с.
8. Рафиқов А.А. Геоэкологик муаммолар.-Т.: Фан, 1996.-110 б.